

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti Buxoro filiali

GIDROMELIORATSIYA
fakulteti

“Suv xo'jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash”
kafedrası

“Himoyaga ruxsat berildi”

Kafedra mudiri

Hasanov I.S. _____

“ _____ ” _____ 2012 y

Bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Buxoro viloyati sharoitida ko'p cho'michli ekskavatorlarning
ish unumdorligini oshirish

Bajardi:

Hayitova M.T.

Rahbar:

Hasanov I.S

Buxoro – 2012 yil

Kirish

Qishloq taraqqiy topsa,
yurtimiz obod, hayotimiz
yanada farovon bo'ladi

I.Karimov.

30-yillardan boshlab O'zbekiston oldiga qo'yilgan sobiq Ittifoqning paxta sohasidagi mustaqilligini ta'minlash vazifasi katta mashaqqat bilan hal qilingach, natijada vujudga kelgan paxta yakkahokimligi qishloq xo'jaligining tub maqsadlariga xilof ravishda yuqoridan zo'rlab o'tkazib kelindi. Buning oqibatida esa:

- respublikada go'sht va sut yetishtirish imkoniyatlari kamayib ketdi;
- respublikaning ko'pgina hayotiy muhim manfaatlariga ziyo yetdi;
- ilmiy asoslangan almashlab ekish jarayoni buzildi;
- yerning tinka-madori qurib, hosildorlik mutassil ravishda pasayib bordi;
- suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamaydi.

Ushbu holatlarning qishloq xo'jaligiga halokatli ta'siri natijasida respublikada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish cheklab qo'yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlash muammolari keskinlashdi.

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishdagi xatolar va yaroqsiz yondashuvlar, xalq xo'jaligining tuzilishida, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishda yo'l qo'yilgan katta-katta kamchilik va nomutanosibliklar og'ir oqibatlarga olib keldi.

Respublikami aholisi salmoqli qismining qishloq joylarda istiqomat qilishi, iqtisodiyot tarkibida qishloq xo'jaligining yetakchi o'rin tutishi mazkur tarmoqni rivojlantirish, undagi uzoq yillar davomida vujudga kelgan muammolarni hal qilish zaruratini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, mamlakatimiz rahbari osha dolg'ali va notinch davrda respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi yangi tashabbuslarni ilgari surib, amalgam oshirilishi zarur bo'lgan bir qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan:

-respublika agrar sektori iqtisodiyotning shunday bo'g'iniki, O'zbekistondagi muammolarning aksariyatini shu bo'g'inga tayanibgina hal etish mumkinligini;

-respublikaga Markaz tomonidan zo'rlab qabul qildirilgan paxta yakkahokimligiga qarshi izchillik bilan kurash olib boorish zarurligini;

-paxta xom ashyosini respublika ichida qayta ishlashni yo'lga qo'yish. Bunga erishilgan holda dehqonlar tomonidan gektar boshiga olinayotgan 2200 so'm daromad paxtani to'liq qayta ishlash natijasida 18-20 ming so'mga yetishi, ya'ni o'n barobar ko'p daromad hamda qariyb yuz xilga yaqin mahsulot olinishi mumkin;

-paxta xomashyosidan samarali foydalanish, ayni paytda bozorga faol ta'sir ko'rsatish yo'llarini o'rganish lozim. Hatto, g'o'zapoya, shrot, lintdan to'g'ri foydalanib, amaldagi daromad hajmini 3-5 barobar ko'paytirish mumkin;

-paxtachilikda almashlab ekishni joriy eitishga asoslangan ilmiy yo'ldan boorish. 1991 yilda paxta tolasi uchun davlat buyurtmasi darajasini yetishtirilgan mahsulotning yarmidan oshirmaslik hisobidan rejani 100 ming tonna kamaytirish vazifasini qo'yilishi paxtadan bo'shagan yerlardan odamlarning dolzarb ehtiyojlarini qondirish, shu jumladan, chorvachilik mahsulotini yetishtieishni kengaytirish uchun foydalanish imkonini yaratadi;

-aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirish. 1995 yilgach meva, sabzavot mahsulotlari yetishtirishni 2 barobardan ziyodroq ko'paytirishni ko'zda tutuvchi asosli dastur ishlab chiqildi;

-qayta ishlash sanoati korxonalar qurilishini jadallashtirish. 1995 yilgach O'zbekistonda 300 ta mo'jaz sex qurish ko'zda tutildi. Bu esa oziq-ovqat mollari resurslrini ancha ko'paytiradi hamda aholini bu molar bilan ta'minlashni yaxshilaydi;

-qishloqlarning ijtimoiy hayotini qayta qurish, qishloqni qashshoqlikdan qutqarish, qishloq xonadonini badavlat qilish yo'lida ish olib boorish.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalgam oshirishda yer va suv masalasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga

muvofiq hisoblanadi. Jumladan, bunda quyidagi jihatlarni diqqat markazida tutish hamda har tomonlama inobatga olish muhimdir:

- respublikada sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligi mahsulotining 95 foizini berishini hisobga olib, yer va suv muammosini birgalikda hal etish;

Birinchidan, sug'orish zonalarida aholi zid joylashgani hamda bu joylarda yer tanqisligi, respublikamizning aksariyat mintaqalarida har bir mehnatchiga 1-1,5 gektar va undan ham ozroq yer to'g'ri kelishi, bunday joylarga yerni xususiy mulk sifatida bo'lib berish katta dojiaga aylanib ketishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ikkinchidan, respublikamizdagi sug'oriladigan dehqonchilik katta-katta kanallar, sug'orish va drenaj tarmoqlari, sug'oriladigan dalalar bilan bog'liq bo'lgan yaxlit yer suv kompleksini yuzaga keltirish, bunday sharoitda yerning o'zini xususiy mulk sifatida foydalanishga topshirish ma'no kasb etmasligi qayd etiladi.

Uchinchidan, o'lkamizda asosiy fondler suv xo'jaligi vositalari, mashina-traktorlar, chorvachilik komplekslari, katta bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari tarzida shakllangani, bu esa keng ko'lamdagi asosiy ishlab chiqarish vositalarini yakka xo'jaliklarga bolib berish mumkin emasligini anglatishi isbotlab berildi.

Jamiyatni yangilash va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish jarayoni qishloqlarimizning taraqqiyoti va farovonligi bilan uzviy bog'liqdir.

Yurtimizning farovonligi, aholi hayoti uchun qulay va zamonaviy shart sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yurtimiz aholisi uchun zarur sharoitlar yaratish, ular farovonligini taminlash, eng avvalo qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida qabul qilinayotgan tegishli qonun hujjatlari hamda Davlat dasturlari mazmun mohiyatini ijrochi va aholining keng qatlamiga yetkazish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etish lozim.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoniga asosan, 2008-2012 yillar mobaynida ushbu sohadagi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida melioratsiya ishlarining buyurtmachilari va ijrochilari

o'rtasida vazifalarni qat'iy taqsimlash hamda ularning javobgarligini oshirish asosida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalgam oshirishga yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ishlarni moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta'minlash, melioratsiya shaxobchalarning ishlashini, drenaj va oqova suvlarning kollektor-drenaj tarmog'i orqali normativga muvofiq chiqarilishini ta'minlaydigan ushbu shaxobchalarni saqlash mexanizmini sifat jihatidan takomillashtirish kabilar belgilangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirib o'tilgan qarorlari asosida "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha loyihalarni shakllantirish, ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, tasdiqlash va amalgam oshirish tartibi to'g'risida Nizom" ishlab chiqildi. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish, fermer xojaliklarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini barpo etish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni hamda qishloq aholisining daromadlarini ko'paytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sug'oriladigan yerlarning hozirgi meliorativ holati qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini yanada o'stirishga va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirishga to'g'anoq bo'lmoqda. Melioratsiya sohasidagi tadbirlarning loyihalarini, shuningdek ularni melioratsiyalashtirishning aniq manbalarini shakllantirishda tizimli ravishda kompleks yondashilmayotganligi, suv xo'jaligi tuzilmalari va suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining sust ishlashi keyingi yillarda melioratsiya ishlari hajmining namoyishlariga sizob suvlarning darajasi ko'tarilishiga va minerallasuvi oshib ketishiga olib keldi.

Buning oqibatida hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'prog'ini turli darajada sho'r bosgan, ayni vaqtda fermer xo'jaliklariga qarashli sug'oriladigan yerlarning 16%dan ortig'i qoniqarsiz holatdadir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish, shuning melioratsiya ishlarini tashkil qilish va

melioratsiyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tegishli qarorlar qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni). Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

Vazirlar Mahkamasiga ushbu dasturlar bajarilishini nazoratga olish vazifasi topshiriladi. Bunda yangi loyihalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutish darkor. Biz modernizatsiya deganda, ko'pincha sanoat tarmoqlarni modernizatsiya qilishni tushunishga o'rganib qolganmiz. Holbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi kabi yetakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohaslarining butun kompleksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Bu borada, avvalo, yerlarning unumdorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Aytish kerakki, bu yo'nalishdagi ishlarning ko'lami yil sayin kengayib borayotganiga qaramasdan, sug'oriladigan yerlarning mavjuf meliorativ holati katta tashvish uyg'otmoqda.

Hozirgi vaqtda yurtimizda jami sug'oriladigan yerlarning qariyb 49% zi turli darajada sho'rlangan bo'lib, buning qariyb 18% kuchli va o'rta darajada sho'rlangan yerlardir, 23% idan ortig'i esa boniteti past yerlar toifasiga kiradi. Meliorativ holati qoniqarsiz yerlarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini bundan buyon ham ko'paytirib boorish maqsadida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash vazifalarining tobora kengayib borayotgan ko'lamlarini, shuningdek, ayrim mintaqalardagi qishloq xo'jaligi yerlarining minerallasishi va sho'rlanganlik holatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib hamda mamlakat iqtisodiyotining ushbu eng muhim sohasida eng yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya institutining Buxoro filialini tashkil etish to'g'risidagi 2010-yil 182-qaroriga binoan tashkil etildi.

Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab quvatlashni kuchaytirish maqsadida mazkur 2012 yilni Prezidentimiz "Mustahkam oila yili" deb e'lon qildilar. Yosh oilalarga yanada ko'proq qulay shahar markazidagi uylardan qolishmaydigan zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida qishloq joylarida zamonaviy binolar qad ko'tarmoqda. Bu sharoitlar esa qishloq xo'jaligini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Umumiy qism.

I.I.Buxoro viloyatining qisqacha meliorativ holati



BUXORO VILOYATI HAQIDA - UMUMIY MA'LUMOT

Buxoro viloyati O'zbekistonning janubi-g'arbida joylashgan. Qizilqum cho'li Buxoro viloyati hududining katta qismini egallaydi. Viloyatning umumiy maydoni – 39 400 kvadrat kilometr. Viloyat tub kontinental, quruq iqlimga ega. Viloyat aholisi taxminan 1 543,9 ming kishiga teng, shundan qariyb 68 foizi qishloq joylarida, 32 foizi shaharlarda yashaydi. Viloyat 11 ma'muriy tumanlardan iborat. Viloyatning ma'muriy markazi – Buxoro shahri bo'lib, uning aholisi taxminan 263 400 kishidir. Viloyatning boshqa yirik shaharlari – G'ijduvon, Romitan va Kogondir.

Viloyat hududida tabiiy gaz, neft, grafit, betonit, marmar, granit, gips, oltinugurt, ohak va boshqa qurilish mollari uchun xom ashyoning boy konlari o'rganilgan.

Eng faol sanoat yo'nalishlari paxta tozalash, to'qimachilik va ipakchilik sanoatidir. Kashtachilik, kulolchilik va ganjkorlik singari an'anaviy o'zbek hunarmandchiligi qayta tiklangan. Qandim, Oqqum, Parsonko'l hududlarida neft, tabiiy gazning katta zahirasi mavjud, taxminiy neft zahirasi hajmi 10 million tonna, tabiiy gaz hajmi 220 milliard kub metrdir. Viloyat hududidagi eng yirik, zamonaviy, respublika ahamiyatiga ega bo'lgan sanoat korxonalaridan biri "Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi" ushbu zahiralar asosida ishlaydi.

Buxoro shahri qorako'l terisini qayta ishlash, duradgorlik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, misgarlik, nafis san'at namunalarini yaratish, shuningdek rivojlangan oziq-ovqat sanoatiga ega.

Eng asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari – paxta, bug'doy, qorako'l teri va tabiiy ipakdir. Qishloq xo'jaligi faoliyati viloyatning faqat sug'oriladigan erlarida olib boriladi.

Viloyatda tadbirkorlik va xususiy biznesni rivojlantirish dasturiga ko'ra ipakchilik sanoatini qayta jihozlash, qurilish materiallari sanoatini hamda kommunikastiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada yaxshilash va ularning qayta ishlanishini rivojlantirish, xizmat ko'rsatuvchi sektor hamda sayyohlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan.

Keyingi yillarda viloyat ekin yerlarining sho'rlanish darajasi keskin pasayayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu ijobiy holatning sababi esa mamlakatimizda qishloq xo'jaligining rivojiga, xususan, bebaho tabiat ne'mati sanalgan yerning meliorativ holatini, uning tarkibini yaxshilashga katta ahamiyat berilayotgani tufaylidir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrdagi "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan 2008 yil 19 martdagi "2008-2012 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to'g'risida"gi

qarori ijrosini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar samarasi o'laroq o'tgan yillar davomida qator ijobiy ko'rsatgichlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Mazkur qonuniy hujjatlar ekin yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, melioratsiya obyektlarini barpo etish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash tiklash hamda ushbu ishlarni moliyalashtirishning yangi tizimini yaratishda muhim omil bo'lib, Buxoro viloyati uchun ham katta ahamiyat kasb etyapti. Hozirgi vaqtda viloyatdagi 274,5 ming gektar sug'oriladigan yerlarning 88 foizi yoki 240,5 ming gektari turli darajada sho'rlangan yerlardan iborat. Jumladan 57,5 foiz kam sho'rlangan yerlar, 4,5 foizini esa kuchli sho'rlangan maydonlar tashkil qiladi. 2007 yilda kuchli sho'rlangan yerlar 15,1 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, bugunga kelib kuchli sho'rlangan maydonlar 10,9 ming gektarga kamaydi. Sug'oriladigan maydonlarda yerosti sizot suvlari 1-1.5 metrgacha bo'lgan maydonlar 2007 yilda 16 ming gektardan ortiq edi. bu ko'rsatgich 2010 yilga kelib 10,2 gektarni tashkil etyapti. Yoki viloyatda meliorativ tadbirlar amalga oshirilayotgan hududlarda paxta hosildorligi 2007 yilda 26,9 sentnerni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatgich 35,4 sentnerga yetdi. Ushbu hududlarda g'alla hosildorligi 2007 yilda gektar boshiga 56,3 sentnerni 2010 yilda esa 69,3 sentnerni tashkil etdi. Buning natijasida meliorativ tadbirlar amalga oshirilgan hududlardagi fermer xo'jaliklaridan ko'shimcha ravishda 10 ming 660 tonna paxta, 8 ming 509 tonna g'alla yetishtirishga erishildi. Eng quvonarlisi, hosildorlikning muhim omili bo'lgan- melioratsiya tadbirlari ko'lami yil sayin kengayib bormoqda.

Imkoniyatlardan samarali foydalanilgani bois 65.66 kilometr uzunlikdagi zovurlar rekonstruktsiya qilindi va qurildi. 14 ta tik drenaj quduq rekonstruktsiya qilingan bo'lsa, 143 ta nazorat quduqlari qurildi. Dasturda belgilanganidek, zovur-drenaj tarmoqlarini ta'mirlash tiklash ishlari 1472,5 kilometrga, yopiq-yotiq drenajlarni yuvish 53,2 kilometrga yetkazilib, 66 tik drenaj quduqlari tamirlandi va bu boradagi rejalar to'liq bajarildi. Mavjud ekskavator, buldozer va boshqa mexanizmlarning kuchidan samarali foydalanishga erishildi. Natijada 16 ta inshootning barchasida belgilangan yumushlar to'liq bajarilib, davlat qabul komissiyasiga topshirildi. Eng katta hajmdagi ish Jondor tumani hududidagi "Kattako'l Go'jayli" magistral zovurini rekonstruktsiya qilish (16,9 kilometr) da bajarildi. 14 ta tik

drenaj quduqni rekonstruksiya qilish va qurish tadbirlari asosan Vobkent, Shofirkon, Romitan, Buxoro tumanlarida amalgam oshirildi. Shuningdek, Kogon tumani hududidagi O'rtacho'l massivi uchun loyihalashtirilgan xo'jaliklararo zovurning 13,7 kilometruga uzaytirildi.

Yerlarning meliorativ holatini taxshilash bo'yicha shu yillarda bajarilgan rekonstruksiya qilish va qurish hamda tizimli tamirlash tiklash ishlari natijasida 162,9 ming gektardan ortiq maydonda yer osti suvlari sathi pasayishiga va 4,4 ming gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashga erishildi. 2011 yilda amalga oshirilgan katta ob'yektlardan biri "Kattako' Go'jayli" kollektorini rekonstruksiya qilishdir. Ushbu kollektor viloyatning Jondor, Qorako'l, Buxoro, Romitan va Vobkent tumanlaridagi 80 ming gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning yerosti sizot suvlarini chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi.

Kollektorni rekonstruksiya qilish bilan "Markaziy Buxoro", "G'arbiy Romitan", "K-18", "K-17" va boshqa bir qator xo'jaliklararo kollektorlarni rekonstruksiya qilish va ular suv sathini 2,4-2,7 metrgacha pasaytirish imkoniyati yaratildi. Oldingi suv o'tkazish qobiliyati 15 m³/sek bo'lib, rekonstruksiyadan keyin 30 m³/sek suv o'tkazish qobiliyatiga erishildi. Natijada, Jondor, Romitan, Buxoro va Vobkent tumanlarining 1,5 gektardan ortiq maydonida meliorativ holatning barqaror bo'lishi ta'minlandi va yerosti sizot suvlari sathini 2,1-2,3 metr chuqurlikgacha pasaytirishga erishildi. Hozirgi kunda ushbu obyekt to'la quvvatda ishlamoqda. Bu borada boshlangan keng ko'lamlı tadbirlarni 2012 yilda ham davom ettirish borasida aniq rejalar belgilab olingan. Shu maqsadda "Amu-Buxoro" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va gidrogeologiya meliorativ ekspeditsiyasi tomonidan "2012 yilda Buxoro viloyatida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini kompleks yaxshilash dasturi" ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan. Joriy yilda viloyatda meliorativ ob'yektlarni rekonstruksiya qilish va qurish ishlari uchun 10 ta inshoot. Shundan 41.1 kilometr uzunlikdagi 6 ta ob'yekt yildan-yilga o'tuvchi, 4 tasi esa rekonstruksiya qilinadigan, yangidan boshlanadigan meliorativ ob'yektdir. Yaqinda ish boshlanadigan 4 ta ob'yektda 59,2 kilometr uzunlikdagi inshootlar rekonstruksiya qilinadi va quriladi. Shuningdek 150 ta nazorat quduqlarini qurish ishlari ham Davlat dasturiga kiritilgan.

Shundan 13 ta yildan-yilga o'tuvchi ob'yektda 774,1 kilometr uzunlikdagi zovurlarni tamirlash-tiklash, 34 ta tik drenaj quduqlarni ta'mirlash, 52 kilometr uzunlikdagi yopiq-yotiq zovurlarini yuvish ishlari hamda 607.4 kilometr uzunlikdagi zovurlarni ta'mirlash, 93 ta tik drenaj qudug'ini va 200 ta nazorat qudug'ini ta'mirlash ishlarini amalga oshirish rejasi belgilangan.

“Qorako'ldaryo” zovurining 25 kilometri rekonstruksiyasida 1 milliard so'mlik ish bajarildi. Romitandagi “Naqib” zovurida esa 16,2 kilometr masofada rekonstruksiya tadbirlari amalgam oshiriladi. Viloyat xo'jalikarida 18 kilometrlik yopiq-yotiq drenajlar qurish ko'zda tutilgan. “Parallel-magistral” zovurlarini Qumsulton pastligiga ulash loyihasining 2 bosqichi amalga oshirildi.

Albatta bu kabi keng ko'lamdagi yumushlarni bajarish uchun viloyatda moddiy va texnik bazasi mustahkam korxonalarining ham bo'lishi talab etiladi.

Vazirlar Mahkamasining “Melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashgan davlat unitar korxonalarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida 4 ta “Davsuvmaxsuspuadrat” davlat unitar korxonalarini tashkil etilgan edi. Bugungi kunda bu korxonalar tasarrufida zamonaviy texnika va mexanizmlar mavjud.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, viloyatda katta ahamiyatga molik melioratsiya ishlarining izchil davom ettirilishi sug'oriladigan yerlarda sho'rlanishning chekinishini ta'minlamoqda. Bu esa dehqonchilikning istiqbolini belgilash bilan birga viloyat qishloq mehnatchilarining turmush farovonligini yanada oshirishga ham xizmat qiladi.

I.II. Buxoro viloyatida suv xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan Davlat unitar korxonalarini to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2007 yil 29 oktabrdagi PF-3932-sonli Farmonini bajarish, sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlar Davlat dasturiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturiga kirgan suv xo'jaligi loyihalarni o'z vaqtida amalgam oshirish, shuningdek boshqa suv xo'jaligi obyektlarini rekonstruksiya qilish qurish, ta'mirlash

ishlarini yuqori saviyada ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 21 martdagi 03/02-1-27-sonli bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 29 martdagi "Suv xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan davlat unitar korxonalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 42-sonli buyrug'iga asosan hamda "Amu-Buxoro" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2008 yil 31 martdagi buyrug'iga asosan Viloyatimizda 4 ta davlat unitar korxonalari tashkil qilindi:

Shundan 1. "Qorako'ldavsuvmaxsuspuadrat" davlat unitar korxonasi Olot va Qorako'l tumanlari hududida faoliyat ko'rsatmoqda. 2. "Romitandavsuvmaxsuspuadrat" davlat unitar korxonasi Jondor, Romitan va Peshko' tumanlari hududida faoliyat ko'rsatmoqda. 3. "Shofirkondavsuvmaxsuspuadrat" davlat unitar korxonasi Shofirkon, G'ijduvon va Vobkent tumanlari hududida faoliyat ko'rsatmoqda. 4. "Buxorodavsuvmaxsuspuadrat" davlat unitar korxonasi Buxoro, Kogon va Qoravulbozor tumanlari hududida faoliyat ko'rsatmoqda.

"Amu-Buxoro" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasarrufidagi davlat unitar korxonalarida mavjud meliorativ texnikalar to'g'risida

Ma'lumot

Tashkilot nomi	Jami texnika soni	Ekskavator	Buldozer
"Qorako'ldavsuvmaxsuspuadrat" DUK	23	17	6
"Romitandavsuvmaxsuspuadrat" DUK	22	18	4
"Shofirkondavsuvmaxsuspuadrat" DUK	16	14	2
"Buxorodavsuvmaxsuspuadrat" DUK	18	14	4
Jami:	79	63	16

I.III.Ko`p chomichli ekskavatoridan foydalanish va mavjud muammolar

1.3 Ko`p cho`michli ekskavatorlardeb, uzliksiz zanjir yoki rotor gardishining ma`lum oraliqlarida joylashtirilgan bir nechta cho`mich joylashtirilgan ish jihozli mashinaga aytiladi. Ular bir (IYoD) yoki ko`p matorli (eliktirik) bo`lishi mumkin. Ularni olib yuruvchi yurish uskunslarining quyidagi ; G`ildirakli (kichik o`lchamli ishlarda), o`rmalovchi (ularning umumiy og`irligiga qarab, ikki yoki bir nechta korpusli),temir yo`lda yoki suvda suzib yuyradigan turlari mavjud.


Bu ekskavatorlar, yer qazish –tashish mashinalarining uzliksiz ishlaydigan ekskavatorlari turkimiga kirib, gruntni qazish va tashish ishlarini uzluksiz bajaradi.Bu ekskavatorlar yordamida to`xtovsiz ish bajarish, ularning bir cho`michli ekskavatorlarga nisbatan ish unumdorligini yuqori bo`lishini ta`minlaydi.

Ayniqsa bu ekskavatorlarning bo`ylama (to`g`ri burchakli yoki trapetsiya shaklidagi transheyalar) qazadiganlari keng tarqalgan bo`lib, ular yordamida neft,gaz,suv quvurlari va boshqa kamunikatsiya ishlari uchun transheyalar kovlash ishlari bajariladi.

Ko`ndalang qazadiganlari esa, qurilish materiallari (gil, shag`al,qum) mavjud bo`lgan karyerlarda ishlatiladi. Bu ekskavatorlar ish unimdorligining yuqori bo`lishi bilan birga, ularni qazish materialllarini bir xil o`lchamgacha maydalab beradi.

KO`P CHO`MICHLI EKSKAVATORLARNING SINFLARI VA ISHLATILISHI.

Ko`p cho`michli ekskavatorlarni turlanishi asosan ularning ish jihozlarini turi va yo`nalishiga asoslangan bo`ladi. Ularning klasifikatsiyasi 1-rasmda keltirilgan ushbu ekskavatorlar ish jihozini siljitib , qazish bo`yicha; bo`ylama,ko`ndalang va radial turlari mavjud.



1-Rasm. Ko'p cho'michli ekskavatorlarning klassifikatsiyasi

Bo'ylama qazadigan ekskavatorlarda, gruntni qazish yo'nalishi bilan ish jihozining ko'chishi bir yo'nalishda bo'ladi. Bu ekskavatorlar asosan transheya (to'g'ri burchakli yoki trapetsiya shaklidagi) transheyalar qazishda ishlatilgani uchun ularni transheya qazuvchi ekskavatorlar deb ataladi.

Ularning ish jihozlari zanjirli yoki rotorli bo'lib, ularga cho'mich yoki kuraklar o'rnatilgan bo'ladi.

Ko'ndalang qazadigan ekskavatorlarda gruntni qazish yo'nalishi bilan ish jihozining ko'chishi o'zaro perpendikulyar bo'ladi. Bu ekskavatorlar asosan qurilish materiallari (gil shag'al qum) mavjud bo'lgan kar'yerlarda ishlatilganligi uchun ularni kar'yer ekskavatorlar deb ataladi. Ularning ish jihozlari zanjirli yoki rotorli bo'lib, ularga cho'mich yoki kuraklar o'rnatilgan bo'ladi.

Radial qazadigan ekskavatorlarda, gruntni qazishda ish jihozi vertikal o'q atrofida aylanishi bilan birga gorizontaal o'q bo'ylab ko'chishi mumkin.

Bu ekskavatorlarning ish jihozi asosan rotorli bo'lib, u xartumning uchiga mahkamlangan bo'ladi. Xartum o'rnatilgan rotor, aylanish platformasi bilan birgalikda vertical o'q atrofida aylanadi.

Trasheya qazuvchi ko'p cho'michli ekskavatorlar.


Bu ekskavatorlar asosan suv, gaz, neft, telefon va elektr kabellari hamda binoning Ustun beton yotqizish uchun transheyalar qazadi. Ularning harakat banbalari dizel yoki dizel- elektrik, ish jihozlari rotorli hamda zanjirli, yurish uskunalari esa g'ildirakli va o'rmalovchi bo'lishi mumkin.

Trasheya qazadigan ko'p cho'michli ekskavatorlarni konstruksiyalari va ularning mexanizmlari.

Transheya qazadigan ko'p cho'michli ekskavatorlarning ish jihozlari oldin aytilganidek, zanjirli yoki rotorli bo'lib, ularga bir necha cho'mich yoki kuraklar o'rnatilgan bo'ladi. Agar grunt yopishqoq bo'lsa ular cho'mich devorlariga yopishib qoladi, buni oldini olish maqsadida uning o'rniga kuraklar ishlatiladi.

Zanjirli ish jihoziga ega bo'lgan ko'p cho'michli ekskavatorlar .

O'rmalovchi yurish uskunasi ega bo'lgan ko'p cho'michli (ЭТЛ-252 rusumli) ekskavatorlarning umumiy ko'rinishi ikkinchi rasmda keltirilgan. U o'zi yurar mashinaga gorizontga nisbatan burchak ostida o'rnatilgan ish jihozi bilan birgalikda uzliksiz harakatlanib, 3-guruh gruntlarida chuqurligi 2,5 m eni 0,35... 0,8 m gacha bo'lgan transheyalarni qaziish uchun ishlatiladi. Ekskavator muvozanatini saqlash maqsadida bazan traktorning harakat manbasi va boshqaruv joyi oldinga suriladi. Ish jihozi esa uningn orqa tomonida joylashtiriladi.



2-Rasm

Ish jihozining ramasiga maxsus zanjir o`raglan bo`lib unga malum oraliqlarda bir nechta kuraklar va qiruvchi tishlar o`rnatiladi. Qazish paytida ish jihozini gurunt ichidagi har xil (tosh, beton va temir bo`laklari) qattiq materiallarni tasiri natijasida buzilishni oldini olish maqsadida harakatni to`xtatuvchi moslama o`rnatilgan. Mashina ishchi qismini pag`onasiz o`zgartirish uchun maxsus drossel bilan jihozlangan turg`un bo`lmagan gruntlarda ishlatish uchun ish jihozi maxsus tirnoqli zanjirlarga ega bo`lib, u ish jihozining ramasiga o`rnatiladi natijada transheyaning kesimi trapetsiya shaklida olinadi mashina quydayi asosiy qismlardan tashkil topgan. Boshqaruv joyi; kardan val; ish jihozini ko`tarib tushuruvchi gidro silindir kurakli qazish ish jihozi qazilgan gruntlarni chiqarib tashlovchi tasmalio yuklagich; burchak reduktori yurish uskunasi va ishchi tezligini pog`anasiz o`zgartiruvchi uskuna.

U gidromexanik ravishda boshqariladi. Ish jihoziga harakat kardan valiva reduktor orqali beriladi.

Zanjirli ish jihoziga ega bo'lgan ekskavatorlarning texnik ko'rsatgichlari

Ko'rsatgichlar	Zanjirli yurish		G'ildirakli yurish
	Rusumlari		
	ЭТЦ- 252	ЭТУ- 354А	ЭТЦ-165
Transheya kesimi	To'g'ri burchakli yoki trapetsiyali		To'g'ri burchakli
Transheyaning chuqurligi, m	2.5:3.5		1.6
Transheyaning eni, m Yuqorisida Tubida	2.8 0.6;0.8		0.27...0.40
Mashinaning ish tezligi, m/soat	5...150	12.5 ...114	10...400
Mashinaning transport tezligi, km/soat1.	2.25...9. 75	0.46 ...4.2	1.89...33.4
Zanjirning tezligi, m/s	0.8;1.25	1.1	0.83;1.16;1.54;2.14
(Tizim) Hidrosistemadagi bosim, MPa	16	-	10
Yurish g'ildiraklari bosimi, MPa Oldingi Orqa	-	-	0.25 0.14
Birinchi guruh guruntlardagi ish unumdorligi m ³ /soat	220	180	72
Massasi,t	16.8	12.3	5.8
Gruntga beradigan bosimi, MPa	0.065	0.058	0.084
Chekki olchamlari, mm:			


Uzunligi	10000	9900	6000
Eni	3400	3100	2250
balandligi	3145	3460	3370

Jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, ormolovchi yurish uskunasiga ega bo'lgan ekskavatorlarning ish unumdorligi, rezina g'ildiragi yurish uskunasiga ega bo'lgan ekskavatorlarnikiga nisbatan yuqori bo'lsada ularning massasi ancha yuqoridir. Shuningdek, ularda ishlatiladigan dvigatel quvvatining yuqori bo'lishi, yoqilg'I miqdorini ko'p talab qiladi. G'ildirakli yurish uskunasiga ega bo'lgan ekskavatorlar tezligining yuqori bo'lishi ularni bir ish joyidan boshqa ish joyiga ko'chishi tezlashtiradi.

Rotorli ish jihoziga ega bo'lgan ko'p cho'michli ekskavatorlar.

Rotorli ish jihoziga ega bo'lgan transheya qazadigan ekskavatorlar zanjirli ish jihoziga ega bo'lgan ekskavatorlarga nisbatan F.I.K va ish unumdorligi yuqori bo'lsada, ular yordamida qaziladigan transheyaning chuqurligi nisbatan kichikdir. Bunga sabab,transheya chuqurligi rotor diametrining 60 foiziga teng bo'lishi kerak. Misol uchun 3,5m chuqurlikdagi transheyani qazish uchun rotirni diametri 6m ni tashkil qilishi kerak bu esa mashinani transport (ko'chirishda) qilishda qiyinchilik tug'diradi.Eni uzaytirilgan transheyalarda ikki qatorli rotorlar ishlatiladi.

Bu ekskavatorlar, asosan zanjirli yurish uskunasiga ega bo'lib mexanik yoki eliktiro mexanik boshqariladi. Rotorli ish jihozi traktorga osma yoki yarim trkama holda o'rnatiladi. Rotorli ish jihoziga ega bo'lgan ko'p cho'michli ekskavatorlarning umumiy ko'rinishi. 3-rasmda keltirilgan




3-Rasm. Rotorli ko`p cho`michli ekskavatorning umumiy ko`rinishi.

Traktor birga osma holda rotorli ish jihozi o`rnatiladi buni ko`tarib tushirish maxsus gidro silindir orqali uning ramasiga 6 ga ulangan po`lat arqonli polistpast 3 yordamida amalgam oshiriladi .Rotor 5 ning gardishiga cho`miochlar o`rnatilgan bo`lib (odatda cho`michlar soni 10...16 dona bo`ladi),u maxsus tishlarga ega mashinani yopishqoq gruntlarda ishlatishga to`g`ri kelsa, cho`michning tubiga maxsus zanjir 4 lar o`rnatiladi. Rotor maxsus rama 9 ga o`rnatilgan roliklar atrofida to`la aylana oladi. Rotorni aylantirish reduktor orqali eliktir divigatel yordamida amalgam oshiriladi.Qzilgan gruntlar tasmani yuklagich 4 yordamida chiqarib tashlanadi yuklagichni eliktir motor harakatga keltiradi. Transheya ichidagi gruntlarni tozalash uchun maxsus tozalagich 8 ish jihozining ramasiga ulangan. Ish jihozini transheyada ushlab turish uchun maxsus tayanch g`ildiragi 7 (ayrim holda chang`i) o`rnatilgan.

Rotorni gardishi 2ga uni aylantirish uchun maxsus tish 1lar boltli birlashma orqali o`rnatiladi.Bu tishlar bilan reduktor tishlar tishlashib, rotorni aylantiradi. Shuningdek gardishga cho`mich 3 ham boltli birlashma orqali qotiriladi. Cho`michga, maxsus tish 5 lar ham mahkamlanadi. Agar mashina yopishqoq grintlarda ishlatilsa,

tubi zanjir 4 dan iborat bo'lgan cho'michlar qo'llaniladi. Bunda cho'mich gardishi bilan rotor gardishlari orasiga bir nechta zanjir joylashtiriladi. cho'mich tubiga (zanjirga) yopi9shgan gruntlar o'zining va Zanjirning og'irligi hisobiga tasmali yuklagichga yuklanadi.



4-Rasm. Tubi zanjirli bo'lgan cho'mich.

1-rotor gardishidagi tish;

2--rotor gardishi

3-cho'mich

4-zanjir 5-cho'michning tishi

Mashinani ishlatish jarayoni .Mashina ish joyiga olib kelinib, rotorga harakat berilish birga uni kerakli chuqurlikda tushirish jarayoni boshlanadi.Rotor kerakli chuqurlikda tushgandan so'ng, mashinaga ishchi tezlik beriladi. Bunda cho'michni tezligi 1.52.5 m\s mashinani ishchi tezligi esa 20...600 m\s ni tashkil qiladi.

Vertikal o'q bo'yicha rotor diametrining taxminan 2\3 qismida mashina yo'nalishiga perpendikulyar joylashgan tasmali yuklagich joylashgan yuklagich gruntini, transheya qirg'og'ini chap yoni o'ng tomoniga tashlash imkoniga ega.

Ayrim rotorli ish jihoziga ega bo'lgan ko'p cho'michli ekskavatorlarni texnik ko'rsatkichlari.

Rotorli ish jihoziga ega bo'lgan ekskavatorlarning texnik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlari	Rusimlari		
	ЭТР-172	Этр-204А	Этр-223А
Dvigatelning quvvati kBT	125	118	
Ishchi tezligi, m/soat	360...960	10...3000	
Transport tezligi, km/soat	1.4...4.7	1.9...6.2	
Gruntga beradigan o'rtacha bosimi, MPa	0.027	0.7	
Transheyaning chuqurligi, m	1.7	2.0	2.2
Transheyani eni, m	0.25	1.2	1.5
diametric, m	3.0	3.55	3.85
Rotorning aylanish tezligi, m/s	6.9..10.7	1.45..1.80	
Tasmali yuklagichning eni, m	--	0.8	
Yuklagichni tezligi, m/s	--	3...5	
Mashinaning ortacha ish unumdorligi, m ³ /soat	420	650	
Mashinaning massasi, t	23.8	31.40	33.50


Ko'p cho'michli ekskavatorlari.

Ko'p cho'michli karier ekskavatorlari qazilma boyliklari, qurilish materiallarini va katlovrarini qazishda ishlatiladi. Bundan tashqari ularning ko'ndalang qazishda zanjirli turlari g'isht zavodlari gruntni yuklash shuniingdek kanalda sirtini tekislashda xam ishlatiladi. Ularni yurishiga perpindikulyar joylashgan zanjirli joylashtirilgan ko'p cho'michli ko'ndalang qazadigan va radial qazadigan rotorli ish jihoziga ega bo'lgan turlari mavjud.

Ko'ndalang qazadigan zanjirli ekskavatorlarning o'rmalovchi yurish uskunasiga hamda temir yo'llarda yuradigan turlari ishlab chiqilgan. Kichik quvvatli ekskavatorlari cho'michning xajmi 20,30,50 va 100 l bo'lib qazish chuqurligi 7 m ni tashkil qilsa yuqori quvvatga ega bo'lgan ekskavatorlar cho'machining xajmi esa

650...4500 l bo`lib qazish chuqurligi 20...60 m ga yetadi. Xarakat manbasiko`p matorli elektrik tarmoqlaridan oladi. Generator yoki elektr tarmoqlaridan maksimal quvvat 350...5500 kvv .Texnik ish unimdorligi 1200..11500 m\soat ,massasi 300...5800 t zanjirni tezligi 1;1,1; 1.2 1.22 1.37 m\s tasmaning tezligi 1,88 2; 2,5 ;2,8; 3,2; 3,5; 6; 7; m\s mashinani yurish tezligi 2....12 m\min.

Temir yo`lda yurib ko`ndalang qazadigan ko`p cho`michli ekskavatorlarning umumiy ko`rinishi ko`rsatiladigan bo`lib u quyidagi asosiy qiamlardan tashkil topgan; maxsus metal fermaga o`rnatiladigan Ko`p cho`michli ish jihozi 1 uni ko`yarib tushuruvchi arqon 2, temir yo`lda yuradigan aravacha 8, boshqaruv joyi 7, tasmali yuklasgich 6, va uni tutib turuvchi arqon 5, yuklagich va ish jihozlani ushlab turuvchi ramalar.




Temir yo`l, ishlash joyiga o`rnatilgandan so`ng ekskavator ushbu temir yo`lga o`rnatiladi. Ekskavatorning ko`p cho`michli ish jihozini uning yurish o`qiga perpenduklyar joylashgan bo`lib, qazishni o`zi turgan joydan pastda yoki yuqoridagi amalgam oshiriladi. Bining amalgam oshirish arqon 2 ni ko`tarib tushirish talab qilinadi. Cho`michlar yordamida qirqilgan gruntlar, chomichning ag`darilishi xisobiga tasmali yuklagich 6 ga tushib, uni yordamida chiqarib tashlanadi.

Radialqazadigan rotorli ekskavatorlarning xam o`rmachalovchi yurish uskunasiga xamda, temir to`llarda yuradigan turlari mavjud. Bu ekskavatorlar gruntni qirgishda, rotorning o`z o`qi atrofida aylanishi xamda aylanins platformasining burilishidan foydalaniladi.

Talab qilanidigan quvvat 430..1120 kvt texnik ish unimdorligi 525..1850m\soat maksimal qazish radusi 15.5...2.8 m rotor diametric 5.2...7.1 m cho`michlar soni 7...10 rotorni aylanish tezligi 5...10.3 ay\min tasmani tezligi 1.6...3.8 m\s , mashina massasi 312..1120 t

O`rmalovchi yurish uskunasiga ega bo`lgan rotorli ekskavatorning umumiy ko`rinishi rasmda ko`rsatilgan.



U quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan; maxsus metal fermaga o`rnatilgan ko`pcho`michli rotor 1, uni ko`tarib tushuruvchi gidrosilindir 8 rotorning xartumi 9, boshqarish joyi 2, tasmali yuklagich 4 o`rmalovchi yurish uskunasiga 6, aylanish platformasi 7.

Ish jarayonida ekskavator o'z o'rnida turib, ko'p cho'michli rotor 1 elektr motor 12 va unga ulangan reduktor 11 yordamida xarakterga keltiriladi. Rotorning cho'michlari yordamida qirqilgan grunt o'z og'irligi xisobiga tasmali yuklagich 10 ga tushadiva uning yordamida yuqoriga ko'tarilib tasmali yuklagich 4 ga buriladi, uning yordamida grunt temir yo'ldagi vagon 5 ga yuklanadi. Xartumi joylashgan rotor aylanishi bilan birga, xartum aylanishi platformasi orqali buraladi.

Natijada uzliksiz qazish jarayoni boshlanib, qazilgan gruntlar tasmali yuklagichlar orqali kerakli transport vositalariga yuklanadi. Qazish qalinligi o'zgartirish uchun, xartumni oldinga so'rish talab qilinadi.

Bu ekskavatorlarning asosiy ko'rsatgichlaridan biri uning massasidir, massasining yuqori bo'lishi ularni bo'lishi ularni bir joydan boshqa joyga ko'cherish uchun bo'lajklarga ajratib, tashish va undan so'ng uni yig'ish talab qilinadi. Buning uchu anch vaqt (30...45) kun sarflanadi. Shuni inobatga olib bu mashinalarni ishlatish (qo'llash) uchu bir necha yilga mo'ljallangan katta hajmdagi karyerlar mavjud bo'lishi kerak.


Mamlakatimizda ham shunday karyer mavjud bo'lib, ular horijdan keltirilgan rotorli ekskavatorlar ishlatilmoqda.

Bizning Buxoro viloyati sharoitida ko'p cho'michli ekskavatorlar asosan kanal va zovurlarni tozalashda hamda turba, va kabellar yotqizish uchun xandaklar qazishda qo'llanilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki bunday ekskavatorlar ish texnologiyasining murakkabligi hamda ish jihozlarning umumlashmaganligi e'tiborga olganda faqat maxsus ishlarni bajarishga qo'llaniladi. Bunday ishlar yil davomida doimiy ish ob'yektlarida bo'lmaydi, shu sababli ekskavatorlarni doimiy foydalanish imkoniyatlari mavjud emas. Bunday hollarda ekskavatorlarning yillik ish bilan ta'minlanishi kamligi sababli bunday rusumli ekskavatorlar tashkilotlarda juda kam ekan. Meni nazarimda kelgusida ko'p kovushli ekskavatorlarni ham universallashtirish lozim. Ya'ni ish organlarni o'lchamlari bo'yicha bir nechta o'lchamga moslash kengligi va chuqurligi hamda har xil konfiguratsiyali xandaklarni qazish yoki kanal va zovurlarni tozalash, shibbalash kabi ishlarni amalgam oshirilsa bu ekskavatorlarni foydalanish samarasi yuqori bo'ladi.

I.IV. KO'P CHO'MICHLI EKSKAVATORLARNI RIVOJLANISH TARIXI, HOZIRGI HOLATI VA KELAJAK ISTIQBOLI.

Qurilish mashinalarining rivojlanishi to'g'risida qisqacha ma'lumot

Qurilish mashinalarining amalda paydo bo'lishini XIX asrning boshlari deb hisoblashimiz mumkin, chunki bu davrda bug' mashinalari paydo bo'lgan va keng qo'llanila boshlangan edi. Birinchi qurilish mashinalaridan dvigateli 15 ot kuchiga ega bo'lgan bug'li ko'p cho'michli er kavlagich hisoblanib, bu mashina Peterburg temir yo'llari injenerlari instituti direktori I.A.Betankur rahbarligida 1812 yilda Ijorsk zavodida yasalgan.



**1.1 –rasm. Ijorsk
zavodining bug' bilan
ishlovchi dunyodagi birinchi
ko'p cho'michli ekskavatori
(1812 y.)**

Keyinchalik zavod yana ikkita ko'p cho'michli er kavlagich yasadi va bu mashinalar gavanalarni chuqurlashtirishda muvaffaqiyatli ishladi. Boshqa mamlakatlarda ushbu mashinalarga o'xshashlari faqatgina 1830 yilda paydo bo'ldi. Bug'li ko'p cho'michli er kavlagich odamlarning kuchlari yoki otlar bilan tortib ishlaydiganlarga qaraganda 14 marta unumli edi.

1836 yilda Amerikalik mexanik Otis tomonidan eng muhim qurilish mashinalaridan biri bo'lgan bug' ekskavatori kashf etildi. Uning cho'michini hajmi $1,14 \text{ m}^3$ bo'lib, vertikal joylashgan bug' mashinasining quvvati 15 ot kuchiga ega, bug' quvurli qozonining bosimi 5 atm. va uch odam bilan boshqarilib, sakkizta ishchi mavjud bo'lib, yo'llar tayyorlash va zaruriy hollarda mashinani harakatlantirar edilar (ekskavator harakat qismining yuritmasi yo'q edi). Hozirgi zamon ekskavatorlari

singari, uning ham uchta asosiy: cho'michni ko'tarish va tushirish, xartum(strela)ni burish va tirsakni harakatlantirish hamda tortish kabi ishchi mexanizmlari bor edi.


Ekskavatorning ish unumdorligi 30 dan 80 m³/soat gacha bo'lib, xuddi shunday hajmdagi zamonaviy ekskavatorlardan 1,5...2 marta kam ish unumdorlikda, massasi bo'yicha ancha og'ir edi.

Otis transport vositalarining sonini hisoblash uchun hozirda qabul qilingan uslublarni qullab, ekskavatorning ishlash texnologiyasini ishlab chiqdi.

Otisning birinchi ekskavatorlari unchalik keng qo'llanilmadi va uning ixtirosi qanday muvaffaqiyatlar keltirishini bilmasdan uning muallifi vafot etdi.

1.2-rasm. V.Otisning ekskavatori

(1836 y.):



1- cho'mich; 2- tirsak; 3- ko'taruvchi zanjir; 4- ko'taruvchi baraban; 5- barabanning zanjirlari; 6- tirsakli surgich va tortgich;


7- xartum; 8- yurituvchi val yulduzchasi; 10- xartum osmasining tyagasi; 11- xartumni tutib turuvchi, aylanuvchi kolonna; 13- xartumni buruvchi zanjirlar; 14- yurish g'ildiraklari.

1842 yilda rus injeneri P.P. Melnikov bunday ekskavator 150 ta er qaziydigan odamning o'rnini bosishini isbotladi va AQSH dan 4 ta shunday mashinani sotib olishga erishdi. Bu mashinalar Peterburg – Moskva temir yo'l qurilishida muvaffaqiyatli ishladi.


Qoziq qoqish ishlari uchun XIX asrning boshlaridayoq massasi 400 kg gacha bo'lgan cho'yan bolg'alarni arqonda qo'l bilan, chig'ir bilan yoki suvli g'ildiraklar bilan ishlaydigan qoziq qoqadigan svay qurilmasi mavjud edi. Birinchi bug' bolg'asining konstruksiyasi 1869 yilda yaratilgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida tuproq ishlarida hajmi 0,1...0,3 m³ bo'lgan otlarga qo'shiladigan hokandozsimon

skreper – volokushkalar, tashish masofasi 100 m dan oshganida hajmi 0,2... 0,3 m³ bo'lgan g'ildirakli skreperlar qo'llanila boshlandi. Birinchi g'ildirakli otlar tortadigan skreperlar XU111 asrda paydo bo'lgan edi.

XIX asrning 50 yillarida Rossiyada yo'llarni tekislash uchun ot bilan tortiladigan yog'och(mola)lar qo'llanilar edi. XIX asrning 70 – yillarida esa AQSH da aravaga osilgan pichoq – ag'dargichli, tuproqni kesadigan va yon tomonga suradigan hamda pichog'i planda buriladigan birinchi greyderlar paydo bo'ldi. Tez orada arava temir g'ildirakli rama bilan almashtirilib, pichoqni ko'tarib tushiradigan mexanizm yaratildi, so'ngra gruntni pichoq – ag'dargichga ta'siri natijasida greyderning surilib ketishini oldini olish uchun g'ildirakli qiyalatgich mexanizmi qo'llanila boshlandi.




1.3 – rasm. **Qo'l bilan boshqariluvchi buriluvchan cho'michli ot tordadigan birinchi g'ildirakli skreper (1773 y.)**




Qo'l bilan tortiladigan birinchi tosh katoklar yo'l ishlarini bajarish uchun eramizdan 2 – 3 ming yil oldin qo'llanila boshlangan, XIX asrning ikkinchi yarmida


dastlab toshli katoklar, so'ngra metall katoklar ot bilan tortiladiganlariga almashtirildi. XIX asrning oxirlarida Kolomensk zavodida quvvati 15...25 ot kuchiga ega bo'lgan, og'irligi 10 t bug'li katoklar ishlab chiqarish boshlandi, 70 – yillarda esa yo'l ishlarida qo'llaniladigan ot bilan tortiladigan greyder – elevatorlar paydo bo'ldi, ularning ish unumdorliklari 100 m³/soat gacha etdi.




1.5 – rasm. Ballast qutili birinchi yo'l katoklari



1.6 – rasm. Kolomensk zavodining bug' bilan ishlovchi birinchi katogi



1.7 – rasm. **Dunyodagi birinchi greyder - elevator (1875 y.)**




1.8 – rasm. **Rossiyada birinchi marta ishlab chiqilgan bug' mashina bilan xarakatlanuvchi jag'li tosh maydalagich**


XIX asrning ikkinchi yarmida yo'l ishlarida toshlarni maydalash uchun birinchi marta jag'li tosh maydalagichlar ishlatila boshlandi.

XX asrning boshlarida esa birinchi bo'lib Rossiyada ancha bir xil maydalaydigan murakkab harakatlanuvchi jag'li tosh maydalagich paydo bo'ldi. Birinchi qorishma tayyorlagich mashinalar 60 yillarda yog'ochdan tayyorlangan bo'lib, ishchilar yordamida qo'l bilan harakatga keltirilgan. Bunday mashinalar qo'l bilan


tayyorlanganga nisbatan xarajatlarni 1,5...2 marta kamaytiradi. Otlar bilan yuritmani ta'minlash va temir barabanlarga o'tish buishlarning narxini yana 1,5 marta arzonlashtirdi, bug'li yuritmaga o'tilganda esa – yana 3 martaga arzonlashdi. 1856 yilda rus polkovnigi I.K.Konstantinov aralashtirishni osonlashtirish uchun beton qorgichning barabani o'qini biroz qiyalatishni taklif etdi, natijada ushbu taklif keng ommalashdi. Betonni zichlash qo'l bilan yog'och va metallar yordamida shibbalanar edi, XIX asrning oxirlarida siqilgan havoni kompressor bilan shlanglardan uzatish natijasida pnevmatik shibbalash qo'llanila boshlandi.



1.9 – rasm. Messentning beton qorgich uskunasi



1.10 – rasm. Er qazuvchi mashinaning muvozanatlashgan



1.11 – rasm. D.Fontanning suzuvchi bir cho'michli

greyferli mexanizmi (1724 y.)

ekskavatorining prototipi(1420 y.):

1- tyaga; 2- tirsak; 3- ish jixozini
tortuvchi arqon; 4- napor hosil qiluvchi
arqon.

O'rmalovchi yurish uskunalarini traktorlarda qo'llash qurilish mashinalarida 1910...1912 yillardan boshlandi. O'zining murakkabligiga qaramasdan, o'rmalovchi yurish jihozi qurilish mashinalarini keyingi rivojlanishidagi, quvvatni oshirishda va qo'llanilish sohasini kengaytirishdagi asosiy omil bo'lib qoldi.

SHunday qilib, ko'pgina mashinalarning ishlash jarayonida qo'l bilan ishlash jarayoniga o'xshash printsiplardan foydalanilar edi; ko'p hollarda bu mashinalar tirkamalar bo'lgan edi.

Sug'orish kanallarini qazishda tuproqning unumdor qatlamini saqlab qolishga olohida e]tabor beriladi, shuning uchu kanal qaziladigan trassa bo'ylab oldin o'simlik o'sadigan tuproq qatlami qazib olinadi va keyinchalik undan foydalanish uchun bi joyga uyib qo'yiladi bu ishlarda T-330, T-180, T-130 traktorlar bazasidagi o'zi yurar 113-155-1-skreperlaridan foydalanish ish unumining yuqori va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Chuqurligi 2.5 m gacha va yon bag'irlarning nishabligi 1..1,25; 1..1,5 hamda chuqurligi 2 m gacha va yon bag'irlarning nishabligi 1:1.75, 1:2 li kanallar qurishda ish unumi yuqori ЭTP-208 ekskavator-kanal qazgichdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. U quvvati 220 kВ kb universal meliorativ shassiga o'rnatiladi. Uning ish unumi ЭTP-206 A ga nisbatan 1.6-1.8 marta yuqori.



Katta sug'orish kanalarini qazishda quyidagi mashinalar kompleksidan foydalanish kam energiya sarflab yuqori ish unumiga erishish va yer ishlarining sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Rotorli ЭTP-223 transheya qazgich ekskavatori ЭTP-208



va ЭTP-206A shnek rotorli ekskavatorlar bir oz takomillashtiriladi va shneklardan biri gorizontall holatda o'rnatiladi. Bu mashinalar kompleksi tuproq qazish va tuproq qazish-tashish mashinalari (bir cho'michli ekskavatorlar, buldozerlar) ornini bosadi, natijada mehnat va material sarfini hamda tegishlicha meliorativ ob'ektlar qurilishi tan narxini ancha pasaytirish imkonini beradi.



Nasos stansiyalari uchun katlovanlar qazishda bir cho'michli ЭО-4111В, ЭО-5122А, ЭО-5123, ЭО-5111 ekskavatorlari, kamaz avtomobilibazasidagi ЭО-3532 va "Tatra" pnevmog'ildirakli shassi ba'zidagi Saturekskavatorla-tekislagichlarini qo'llanish maqsadga muvofiqdir. Pnevmatik g'ildirakli ЭО-3323 ekskavatori, shuningdek gusinitsali (traktor tipidagi) tejamkor gidravlik yuritmalı ЭО-4125 ekskavatorlari zamonaviy talablarga javob beradi.



Yuqoridagilardan tashqari “Тяжэкс” birlashmasi zavodlari gusinitzalarda yuradigan yangi gidravlik ЭО-5124 va ЭО-6123 ekskavatorlarini ishlab chiqaradi. Mavjud gidravlik ekskavatorlarga nisbatan ularning ish unumi 30-35%, mexanik ekskavatorlarga nisbat 1.5-2.0 marta yuqori.

Yangi ekskavatorlarining muhim afzalliklari ish uskunalari energiyasidan takroriy foydalanish imkoniyati mavjudligi bo'lib uning mohiyati quyidagicha ;tuproqqa tushirilayotgan cho'michning og'irlik kuchi ta'sir ostida ish suyuqligining bir qismi strela gidrosilindrli porsheni bo'shlig'idan. Katta bosim ostida gidropnevmatik akkumulyatorga itarib chiqariladi. Va ish uskunasi ko'tarilganda gidro silindirning shitok bo'shlig'iga qaytadi. Rekuperatsiya sistemasi yufayli tuproq bilan to'lgan cho'michni ko'tarishda dezeldan iste'mol qilinadigan quvvat va tegishli yonilg'I sarfi ham ancha kamayadi. Shu bilan bir vaqtda ekskavatorning ish unumi oshadi. Dezelni avtomatik boshqarish sistemasining mavjudligi yangi gidravlik ekskavatorlarning afzalligidir. Agar ekskavatorni boshqarish dasta va pedallari neytral holatda (texnologik to'xtashlar vaqtida) bo'lsa sistema dizelni avtomatik tarzda salt aylanishga o'tkazadi, boshqarish dastalari ulanganda uni ish rejimiga qaytaradi. Avtomatik boshqarish sistemasini qo'llash tufayli bitta ekskavatorida bir yilda 10 t gacha yaqin dizel yonilg'isi tejiladi. Bu sistema barcha mashinalarda yoppasiga qo'llanilganda bir yilda bir necha o'n ming tonna yonilg'I tejash mumkin.

I-III kategoriyali gruntlarda chuqurligi 1 m gacha bo'lgan kichikroq sug'orish kanallari qazish uchu MK-22 gkeu-rotorli kanal qazigich ishlab chiqariladi. Uning ish uskunasi yurish tezligi pasaytirgichi bilan jihozlangan g'ildirakli K-701 traktoriga o'rnatiladi.

I-II-kategoriyali toshli gruntlarda chuqurligi 0.5m gacha bo'lgan sug'orish kanallari qazishda quvvati 70 kBt ДТ-75БВ-С₄ traktori bazasidagi МК-23 plug rotorli kanal qazgichdan foydalanish yaxshi natija beradi. Unda posangi o'rniga buldozer ag'dargichi o'rnatilgan bo'lib, Bu qo'shimcha texnika vositalari (Buldozer, tekislagich va boshqalar)ni jalb etmasdan ko'shimcha yer ishlarini (gruntni surish, kichik maydonlarni odin tekislash) tez bajarish imkonini beradi.

Chuqurligi 2 m gacha bo'lgan kanallarni tozalash va remont qilishda MP-16 kanal tozalagichlari samaralidir. Bu mashinalar bilan kanal bo'ylari va yon bag'irlarida o'sgan o'tlarni o'rish buldozer uskunasi bilan gruntni qazish va surish kanallar tubini loy surish uskulari bilan tozalash mumkin. Hozirgi vaqtda 3 m gacha chuqurlikdagi kanallar uchun yangi o'zi yurar MP-21 kanal tozalagichni ishlab chiqarish o'zlashtirilmoqda, kelajakda MP-19 kanal tozalagichni (1,4-2 klasli g'ildirakli traktorlar bazasida) ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda u melioratsiya tarmoq'iga xizmat ko'rsatish bo'yicha 8 ta ishni bajara oladi.

II. INJENERLIK HISOBLASH QISM.

II.I. BUXORO VILOYAT SHAROITIDA KO'P CHO'MICHLI EKSKOVATOR ISHCHI QISM O'LCHAMLARINI ASOSLASH.

Ekskovatorning texnik ish unumdorligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$U_i = 0.06 * q * n_z * \frac{k_h}{k_g} = U_i = 0.06 * 0.02 * 30 * \frac{0.8}{1.2} = 240 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Bu yerda: q-chomichning geometrik sig'imi, litr; n_z- bir daqiqa vaqt davomida, tuproqni to'kkan chomichlar soni, dona/daqiqa; k_h-cho'michning hajmidan foydalanish koefitsenti; (k_h=0,8...1,2); k_g gruntni yumshatish koefitsent, (k_g=1,0...1,2).

Cho'michni hajmini geometrik usulda quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin. q ≈ (0,8...0,9)*h_{ch}*b_{ch}* k_h=

$$h_{ch} = 1.45 * l_z = 1.45 * .04 \approx 0.6$$

$$b_{ch} = 0,4$$

$$l_{ch} = 2.4 * l_z = 2.4 * .04 \approx 1$$

$$q = 0.85 * .06 * .04 * 1 = 0.2 \text{ m}^3$$

bu yerda: h_{ch}-chomichning balandligi, m, h_{ch}=(1.4...1.5)*l_z; b_{ch}—chomichning eni, m, (b_{ch}=b-(0.06...0.10)); l_{ch}-chomichning uzunligi, m, (l_{ch}=(2.2...2.6)*l_z).

bu yerda l_z -zanjirning qadami, m,

Bir daqiqa vaqt davomida, tuproqni to'kkan cho'michlar sonini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin.

$$n_z = \frac{60 * g_s}{l_{chq}} = \frac{60 * 0.6}{1.2} = 50 \text{ dona / min}$$

bu yerda g_z - zanjirning tezligi, m/c ($g_z=0.6...2.65$) m/c; l_{chq} -chomichlarning qadami, m, ($l_{chq}=0.7...1.2$ m).

Mashinaning yurish tezligi, quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$g_m = \frac{U_t}{h * b} = \frac{240}{1.2 * .04} = 500 \text{ m / soat} = 0.5 \frac{\text{km}}{\text{soat}}$$

Ko'p chomichli ish jihozining harakat tezligining absolyut qiymati. Kosinuslar teoremasiga asosan aniqlaymiz.

Bu yerda α_{msh} -jihozining gorizontga nisbatan og'ish burchagi grad. Absolyut tezlik gorizontga nisbatan β -burchakka og'ishini bilgan holda, uni sinuslar teoremasiga asosan aniqlaymiz

$$g_z = \frac{V \sin \beta}{\sin \lambda_{ish}} = \frac{0.15 * \sin 45^0}{\sin 60^0} = \frac{0.15 * 0.71}{0.87} = 0.12 \frac{\text{sin}}{\text{soat}}$$

$$g = \sqrt{g_z^2 + g_m^2 + 2g_z * g_m * \cos \alpha_{msh}} = g \sqrt{0,12^2 + 0,5^2 + 2 * 0,12 * 0,5 * \cos 60^0} = \\ = \sqrt{0.014 + 0.25 + 0.06} = 0.324 \text{ km / soat}$$

$$\sin \beta = \frac{g_z \sin \alpha_{msh}}{g}; \text{ бундан } \beta = \arcsin \frac{g_z \sin \alpha_{msh}}{g}, \text{ град.}$$


Cho'michlar yordamida qirqiladigan tuproq qalinligi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\delta = \frac{g_m * l_{chq}}{g_z} * \sin \beta = \frac{0.5 * 1.2}{0.12} * \sin \beta = 5 * \sin 45^0 = 0.5 * 0.707 = 3.54 \text{ m}$$

II.II. KO'P CHOMICHLI ESKOVATORNING TORTISHGA QARSHILIGINI HISOBLASH

Ko'p cho'michli ish jihozining harakat yunalishi gorizontga nisbatan α_{msh} -burchakka og'ganligini hisobga olib, gruntning qirqishdagi reaksiya kuchlarining urinma

– F_R^u va normal F_R^n tashkil etuvchilarini gorizontol F_u^g, F_n^g va vertical F_u^v, F_n^v tashkil etuvchilarga ajratib, ularning yigindisi $\sum F_g$ va $\sum F_v$ ni aniqlaymiz



RASM: Mashinaning hisob chizmasi

$$\sum F_g = F_u^g \cos \alpha_i + F_n^v \sin \alpha_i = 66.4 * 0.5 + 19.9 * 0.87 = 33.2 + 17.3 = 50.5 \text{ kN}$$

$$\text{Va } \sum F_v = F_u^g \cos \alpha_i - F_n^v \sin \alpha_i = 66.4 * 0.5 - 19.9 * 0.87 = 33.2 - 17.3 = 15.9 \text{ kN}$$

$$F_n^v = 0.3 * 66.4 = 19.9 \text{ kN}$$

Gruntni qazishdagi urinma va normal kuch, quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$F_u^g = \frac{P_i}{g_i} = \frac{365.3 * 10^3 \text{ Bt}}{5.5 * 10^3 \frac{\text{m}}{\text{soat}}} = 66.4 \text{ kB} \quad \text{va} \quad F_n^v = (0.2 \dots 0.5) * F_u^g, \text{ kN} \quad F_n^v = 0.3 * 66.4 = 19.9 \text{ kN}$$

Bu yerda: P_i -ish jihoziga sarflanadigan quvvat, kBt; g_i ish jihozini (zanjirni) tezligi, m/c

Ish jihozlari yuritish uchun sarflanadigan quvvat, quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$P_i = \frac{P_q + P_k + P_{ish}}{\eta_i * \eta_y} = \frac{80.6 + 39.3 + 122.4}{0.85 * 0.8} = \frac{242.3}{0.68} = 356.3 \text{ kBt}$$

Bu yerda; P_q gruntni qazish uchun sarflanadigan quvvat, kBt qazilgan gruntni ko'tarishga sarflanadigan quvvat, kBt P_{ish} qazilgan tuproqni transheyadevorlarida ishqalanishga sarflanadigan quvvat, η_i -ish jihozining F.I.K ($\eta_i=0.85$); η_y -yuritmaning F.I.K ($\eta_y=0.80$)

Gruntni qazish uchun sarflanadigan quvvat, quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$P_q = 0.28 * U_t * k_q = 0.28 * 240 * 1.2 = 80.6 \text{ kBt}$$

Bu yerda; U_t - mashinaning texnik ish unumdorligi, m/soat, k_q -gruntni solishtirma qazish qarshiligi MPa.

Qazilgan gruntni ko'tarishga sarflanadigan quvvat, quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$P_k = \frac{U_t * \gamma_g * h_k}{3.6 * 10^6} = \frac{240 * 10^3 * 1.700 * 3}{3.6 * 10^6} = 122.4 \text{ kBt}$$

Bu yerda; λ_g -tuproqning solishtirma og'irligi, kH/m^3 ; h_k tuproqni rotor bilan ko'tarish balandligini quyidagicha aniqlash mumkin.

$$h_k = h + h_o = 1.6 + 1.4 = 3 \text{ m}$$

Bu yerda; h -transheyaning chuqurligi, m; h_o -yer sirtidan cho'michdagi gruntni to'kilishigacha bo'lgan masofa, m

Tuproqni transheya devorlarida ishqalanishiga sarflanadiga quvvat, quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$P_{ish} = \frac{U_t * \lambda_g * l_{iu} * f_{gg}}{3.6 * 10^6} = \frac{240 * 10^3 * 0.8 * 4.33 * 0.1700}{3.6 * 10^6} = 39.3 \text{ kBt}$$

Bu yerda; f_{gg} grunt bilan ishqalanish ko'rsatkichi; l_{iu} -ish jihozining tuproq bilan tishlashish uzunligi, m. Uni quyidagicha aniqlash mumkin.

$$l_{iu} = (1.2 \dots 1.3) \frac{h}{\sin \alpha_i} = 1.25 * \frac{3}{\sin 60^\circ} = \frac{3.75}{0.866} = 4.33 \text{ m}$$

Tasmali yuklagichga sarflanadigan quvvat, quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$P_{ty} = \frac{U_t * P_g * g_{ty}^2}{3.6 * 10^6} = \frac{240 * 10^3 * 1.5 * 30.7}{3.6 * 10^6} = 11.05 \text{ kBt}$$

$$g_{ty} = 1.54 \frac{m}{s} 5.5 \frac{km}{soat}$$

$$P_{ut} = P_{ish} + P_{ty} = 356.3 + 11.1 = 367.4 \text{ kBt}$$

Bu yerda; P_g -yumshatilgan gruntning zichligi, kg/m^3 g_{ty} tasmali yuklagichning tezligi, m/s (mashinaning texnik ko'rsatkichidan olinadi.)

Mashinani ish paytidagi yurishga qarshi kuchlarning yig'indisi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi (83-rasm):

$$\sum F_y = R * (f \pm i) + \sum F_g = 138.9 * (0.8) + 50.5 = 111.1 + 50.5 = 161.6 \text{ kN}$$

$$(f=0.6 \dots 0.9)$$

Bu yerda: R -traktorni yurish uskunasi tuproqning normal reaksiya qarshilik kuchi, kN $\sum Z = 0$ shart orqali topiladi mashinaning yurishidagi qashilik koeffitsienti: i -mashinaning yurishidagi qiyalik nisbatligi ($i \approx 0$): $\sum F_g$ -gruntning qiruvchi reaksiya kuchlarining gorizontal tashkil etuvchilarining yig'indisi, kN , uni formuladan foydalanib aniqlash mumkin, ya'ni

$$R = (m_t + m_i) * g + \sum F_v = 12.3 * 10^3 * 9.81 + 15.9 = 138.9 \text{ kH}$$

Bu yerda: m_t va m_i tegishli ravishda traktor va ish jihozini massasi $\sum F_g$ gruntning qiruvchi reaksiya kuchlarining vertikal tashkil etuvchi reaksiya ning yig'indisi kN , formuladan foydalanib aniqlash mumkin.

Mashinani yurishi uchun sarflanadigan quvvatni quyidagi formula bilan aniqlab olinishi mumkin:

$$P_y = \frac{\sum F * g_m}{\eta_y} = \frac{161.6 * 1.54}{0.85} \text{ kBt}$$

Bu yerda $\sum F$ kanal qazgichning yurishiga qarshi kuchlarning yig'indisi kN ; g_m mashina ish paytidagi yurish tezligi m/c ; η_y yuritmaning umumiy F.I.K. ($\eta_y = 0.85$)

Ekskavatorning ish vaqtidagi turg'inlik koeffitsientini aniqlash formula yordamida amalga oshiriladi Buning uchun A nuqtaga nisbatan moment olib ag'daruvchi kuchlarning muvozanati $\sum M$ tenglamasida foydalanib, turg'unlik koeffitsienti k_t aniqlanadi.

$$k_t = \frac{m_i \cdot g \cdot x_i}{m_i \cdot g \cdot x_1 + \sum F_v \cdot x_2 - \sum F_g \cdot z_1} = \frac{8 \cdot 10^3 \cdot 10 \cdot 18}{4 \cdot 10^3 \cdot 10 \cdot 0.8 + 15.9 \cdot 2.4 - 50.5 \cdot 1.6} =$$

$$= \frac{144 \cdot 10^3}{7.2 \cdot 10^3 + 38.16 - 80.8} = \frac{144 \cdot 10^3}{29.4 \cdot 10^3} = 4.89 \approx 5$$

Mashinaning dvigateliga tushadigan quvvat , quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$P_o = (1.05 \dots 1.07) (P_i + P_{ny} + P_y) = 1.06 (356.3 + 11.1 + 292.8) = 699.8 \text{ kBt}$$

III. TEXNOLOGIK QISM

III.I. Buxoro viloyati sharoitida kollektorlarni tozalashning mexanizastiyalashgan ishlarni texnologiyasini asoslash.

Ko`p cho`michli ekskavator ishlarini kompleks mexanizastiyalashgan usulda bajarishda ekskavator kerakli soni, ishlash muddatlari va ishchi kuchi mehnati sarflari miqdorini hisoblash.

Zax qochirish tizimlarida tozalash-ta'mirlash ishlarini bajarishda kollektor o'zidan loyqa cho'kindini va lokal deformastiyalangan uchastkalaridagi gruntni qazib olish ishi asosiy hisoblanadi. Bu ishlarni bajarishni tashkil qilishda asosiy mashinalar – ekskavatorlar sonini hisoblab topish, ularga ishlab chiqarish vazifalarini belgilash, ishchi kuchi sarfi me'yorini hamda ishlab chiqarish vazifalarini bajarish muddatlarini belgilash muhim sanaladi

Ushbu BMI punkt tavsiyalariga ko'ra zax qochirish kanallarini, loyiha parametrlari doirasida *loyqa cho'kindidan tozalash ishlarini* mexanizastiyalash uchun chet mamlakatlar va O'zbekistonda ishlab chiqarilgan teskari cho'michli gidravlik ekskavatorlar tanlanadi. Lekin meliorativ tizimlar va inshootlardagi ta'mirlash-tiklash ishlarining amaldagi idoraviy me'yorlarida zamonaviy gidravlik ekskavatorlar uchun ishlab chiqarish me'yorlari keltirilmagan. Shuning uchun Texnik qismi tavsiyasiga ko'ra teskari cho'michli gidravlik zamonaviy ekskavatorlarining qazish, tozalash-ta'mirlash ishlarini bajarishdagi, smenadagi ishlab chiqarish ish unumdorliklari me'yorlari va boshqa ish ko'rsatgichlari keltirilgan formulalardan foydalanib hisoblanadi.

Ekskavatorning tabiiy namlikdagi I-IV gurux gruntlarni qazishda smenadagi eksplutastion ish unumdorligi me'yori (U_{sm}^e) ushbu formuladan foydalanib hisoblanadi.

$$U_{sm}^e = 492 \cdot q \cdot n \cdot K_e \cdot K_v, \text{ m}^3/\text{sm} \quad (5.11)$$

bu erda, 492-soni haftasiga 5 kunlik ish bo'lganda bir smenadagi ish vaqti davomiyligi, min; q – ekskavator cho'michining sifimi, m^3 ; $n = \frac{60}{t_{st}}$ - ekskavatorning 90⁰ gacha burilib ishlaganda, bir minutdagi ishchi stikllari soni; t_{st} - bir ishchi stikli davomiyligi, sek; $K_e = 0,63 \div 0,9$ - ekskavator cho'michi sifimidan foydalanish

koefitsienti, mos ravishda I-II gurux gruntlarni qazishda 0,9-0,8; III-IV gurux gruntlarni qazishda 0,70-0,63; $K_v=0,75$ - smena ichida vaqtdan foydalanish koefitsienti; ko'rsatgichlari va hajmlari uchun EK 20-27 –markali, gidravlik teskari cho'michli, sirimi $0,53 \text{ m}^3$ lik ekskavator bilan kollektor ko'ndalang kesimini cho'kindi loyqa, o'simlik o'sgan grunt dan tozalash ishlaridagi ish unumdorliklari me'yori va ishlab chiqarish vazifasini bajarish muddati, ekskavatorlar kerakli soni va ishni bajarish uchun talab qilinadigan mehnat sarfi umumiy miqdori me'yorlari hisoblanadi

Echish. (3.11) ifodadan foydalanib, ekskavatorning tabiiy namlikdagi 1-gurux gruntini qazishda

smenadagi eksplutastion ish unumdorligi me'yorlari hisoblanadi:

$$U_{sm}^e = 492 \cdot q \cdot n \cdot K_e \cdot K_v = 492 \cdot 0,53 \cdot 0,9 \cdot 3,75 \cdot 0,75 = 660 \text{ m}^3/\text{sm};$$

Bu erda, $K_e=0,9-0,8$ - tabiiy namlikdagi grunt ni qazishda ekskavator cho'michi sirimidan foydalanish koefitsienti; $n = \frac{60}{t_{st}} = \frac{60}{16} = 3,75$ - EK 20-27 markali

gidravlik ekskavatorning bir minutdagi ishchi stikllari soni; $t_{st} = 16$ bir ishchi stikli davomiyligi, sek; $K_v=0,75$ - smena ichida vaqtdan foydalanish koefitsienti; $K_{o'sm}$ - ekskavator ish unumdorligiga kollektor yonlari va ostida o'sgan daral poyali o'simliklar ta'sirini hisobga olish koefitsienti- $K_{o'sm}=1,1$ olinadi.

Kollektor uchastkasini tozalashda grunt suv ostidan ($h_{cyb} = 1,0 \text{ m}$) qazib olinadi, u holda soatdagi ish unumdorlik me'yorlari, suv chuqurligiga bo'liq ravishda quyidagicha hisoblanadi.

$$U_s^e = U_{sm}^e / 8,2 \cdot K_{suv} \cdot K_{o'sm}, \text{ m}^3/\text{soat}$$

bu erda, K_{suv} – kollektordagi suv chuqurligiga bo'liq bo'lgan koefitsient, [9] 10-betidan olinadi.

Kollektordagi suv chuqurligi, h_{suv}	K_{suv}
0,2-0,5 m	1,1
2,0 m gacha	1,25
4,0 m gacha	1,4
4,0 m dan ortiq	1,7

U holda kollektordagi $h_{suv}=0,51-2,0$ m gacha bo'lganda ekskavatorning soatdagi eksplutastion ish unumdorligi me'yori (U_s^e) quyidagi formuladan foydalanib topiladi.

$$U_s^e = U_{sm}^e / 8,2 \cdot K_{suv} \cdot K_{o'sm} = 660 / 8,2 \cdot 1,25 \cdot 1,1 = 58,53 \text{ m}^3/\text{soat};$$

Kollektor uchastkasini tozalashda grunt ni ekskavator bilan transportga ortib ishlagandagi ishlab chiqarish ish unumdorligi me'yori

$$U_{s.tr}^e = U_{sm}^e / 8,2 \cdot K_{suv} \cdot K_{o'sm} \cdot K_{tr} = 660 / 8,2 \cdot 1,25 \cdot 1,1 \cdot 1,2 = 48,77 \text{ m}^3/\text{soat};$$

Ekskavatorning o'simlik bilan o'sgan 1-gurux cho'kindi loyqa grunt ni tuproq tepaga tashlab va ma'lum bir qismini transport vositasiga ortib ishlagandagi o'rta o'lchangan ishlab chiqarish ish unumdorligi me'yori quyidagicha hisoblanadi:

$$U_{s.o'r}^e = \frac{U_s^e \cdot V_{toz1} + U_{s.tr}^e \cdot V_{tr1}}{V_{toz1} + V_{tr1}} \text{ m}^3/\text{soat};$$

Bu erda, $V_{toz1} = 6000 \text{ m}^3$ 1-guruxga mansub, cho'kindi loyqa, tuproq tepaga tashlab qaziladigan

grunt hajmi; $V_{tr1} = 2000 \text{ m}^3$ 1 – uchastkadan qazib olinib transport vositasiga ortib

qaziladigan grunt hajmi. U holda ekskavatorning soatdagi o'rtacha o'lchangan ishlab chiqarish ish unumdorligi me'yori:

$$U_{s,o'r}^e = \frac{U_{s,soz}^e \cdot V_{toz1} + U_{s,tr}^e \cdot V_{tr1}}{V_{toz1} + V_{tr1}} = \frac{58,53 \cdot 6000 + 48,77 \cdot 2000}{6000 + 2000} = \frac{448720}{8000} = 56,09 \text{ m}^3/\text{soat}$$

teng bo'lishi hisoblab topildi.

Ekskavatorning smenadagi ishlab chiqarish ish unumdorligi me'yori (smenadagi ishlab chiqarish vazifasi me'yori) quyidagicha belgilanadi:

$$U_{sm}^e = 8,2 \cdot U_{s,o'r}^e = 8,2 \cdot 56,09 = 459,94 \text{ m}^3/\text{sm}$$

Qurilish ob'ektidagi ekskavatorlar kerakli sonlarini va ishlab chiqarish vazifasini bajarish muddatlarini hisoblashda ekskavatorlarning yillik ekspluatasion ish unumdorliklarini hisoblash kerak bo'ladi. Ekskavatorning yillik ishlab chiqarish ish unumdorligi (U_{yil}^e) quyidagi formuladan foydalanib hisoblanadi.

$$U_{yil}^e = D \cdot U_s^e \cdot K_v \text{ m}^3/\text{yil};$$

Bu erda D- ekskavator yillik ish vaqti fondi, soat; $D=12 \cdot T_{oy}=12 \cdot 170,25=2043$ soat; $T_{oy}=170,25$

ekskavator oydagi o'rtacha ish vaqti fondi, soat; U_s^e - ekskavatorning hujjatlar (ENiR, VNiR)

me'yorlari bo'yicha hisoblab topilgan ishlab chiqarish ish unumdorligi- m^3/soat ; K_v - smena

ichida vaqtdan foydalanish koeffitsienti orqali, soatdagi ishlab chiqarish ish unumdorligi

tarkibida hisobga olinmagan, smena ichidagi tashkiliy sabablarga ko'ra to'xtab qolishlar hisobga olinadi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarda (ENiR, VNiR) ishlab chiqarish me'yorlari

keltirilmagan bir cho'michli gidravlik ekskavatorlar uchun ishlab chiqarish ish unumdorligi me'yori $U_s^e = U_s^{et} \cdot K_{o'tsh} \text{ m}^3/\text{soat}$, ko'rinishida [12] 462-betida keltirilgan formuladan foydalanib hisoblanadi. U holda

$$U_{yil}^e = D \cdot U_s^{et} \cdot K_{o'tsh} \cdot K_v \text{ m}^3/\text{yil};$$

Bu erda U_s^{et} - ekskavatorning soatdagi texnik ish unumdorligi ko'rsatgichi, m^3/soat ; $K_{o'tsh}$ -texnik

ish unumdorligidan ekspluatasion ish unumdorligiga o'tish koeffitsienti. [11] 463-betidagi

$q=0,26 \div 0,65 \text{ m}^3$ da $K_{o'tsh}=0,3$; $2,5 < q > 0,65 \text{ m}^3$ da $K_{o'tsh}=0,4$ qabul qilinadi

Ekskavatorning soatdagi texnik ish unumdorligi quyidagicha hisoblanadi:

$$U_s^{et} = 60 \cdot q \cdot n \cdot K_e \text{ m}^3/\text{soat}$$

U holda EK 20-27- markali gidravlik ekskavatorning soatdagi texnik ish unumdorligi

$U_s^{et} = 60 \cdot q \cdot n \cdot K_e = 60 \cdot 0,53 \cdot 3,75 \cdot 0,9 = 107,32 \text{ m}^3/\text{soat}$ ga teng bo'lishini va tabiiy namlikdagi grunt

erga tashlab ishlagandagi ishlab chiqarish ish unumdorligi ko'rsatgichi

$U_s^e = U_s^{et} \cdot K_{o'tsh} = 107,32 \cdot 0,3 = 32,19 \text{ m}^3/\text{soat}$ va transportga ortib ishlagandagisi

$$U_{s,tr}^e = \frac{U_{s^e}}{K_{tr}} = \frac{32,19}{1,2} = 26,82 \frac{\text{m}^3}{\text{soat}}$$
 ekanligini hisoblab topildi.

EK 20-27 - markali gidravlik ekskavatorning yillik ishlab chiqarish ish unumdorligi me'yori quyidagicha hisoblanadi:

$$U_{yil}^e = D \cdot U_s^{et} \cdot K_{o'tsh} \cdot K_v = 2043 \cdot 30,84 \cdot 0,75 = 47254,6 \text{ m}^3/\text{yil};$$

Tozalash-ta'mirlash ishlarini bajarishda ekskavatorlar kerakli soni va ishlab chiqarish vazifasini bajarish muddati quyidagicha hisoblanadi:

$$N_e = \frac{V_{toz1} \cdot 12}{U_{yil}^e \cdot T_{ish}}, \quad T_{ish} = \frac{V_{toz1} \cdot 12}{U_{yil}^e \cdot N_e}, \quad (5.12)$$

Hisoblab topilgan ekskavatorlar soni butun qiymatgacha yaxlitlanadi, u holda $N_e = 1$ dona qilib qabul qilinadi va ishlab chiqarish vazifasini bajarish hisoblab topilgan muddati

$$T_{ish} = \frac{V_{toz1} \cdot 12}{U_{yil}^e \cdot N_e} = \frac{4000 \cdot 12}{47254 \cdot 1} = \frac{48000}{47254} = 1.01 \text{ o'g}$$

ekanligi va ishni bajarish uchun talab qilinadigan mehnat sarfi umumiy miqdori miqdori me'yorini quyidagicha hisoblanadi:

$$\sum MC_{koz} = \frac{V_{toz1} \cdot MC}{100} = \frac{4000 \cdot 3.54}{100} = 141.6 \text{ ishchi - soat}$$

Bu erda, MS_{1-uch} - kollektor 1-uchastkasini teskari cho'michli gidravlik ekskavator bilan qazishda

100 m³ grunt uchun mehnat sarfi hisoblab topilgan me'yorini, ishch-s; 1-bo'lim texnik

qismi 5 punkti birinchi abzasti (6-bet) shartlariga va 7-betda keltirilgan ish tarkibiga ko'ra,

tozalash ishida 100 m³ grunt qazib olish ishlari mehnati sarfi hisoblab topilgan me'yorini,

ekskavatorning 100 m³ grunt qazib olish vaqti hisoblab topilgan me'yoriga teng qilib olish


mumkin.

$$U_{s.o'r}^e = \frac{U_{s}^e \cdot V_{toz1} + U_{s.tr}^e \cdot V_{tr1}}{V_{toz1} + V_{tr1}} = \frac{32.19 \cdot 6000 + 26.82 \cdot 2000}{6000 + 2000} = \frac{246780}{8000} = 30.84 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

$$\text{Unda } MS_{1-uch} = \frac{MS_e \cdot V_{toz1} + MS_{e.tr} \cdot V_{tr1}}{V_{toz1} + V_{tr1}} = \frac{3.1 \cdot 6000 + 3.75 \cdot 2000}{6000 + 2000} = \frac{26040}{8000} = 3.25 \text{ ishch - s;}$$

$$\text{bu erda } MS_e = \frac{100}{U_{s}^e} = \frac{100}{32.19} = 3.1 \text{ ishch - s;}$$

Kollektorlar xarakterli ko'ndalang kesimlarini chizish



1.1-chizma. Kollektoruchastkasi ko'ndalang kesimi parametrlari

Bu erda,

V_{ya} —kollektor uchastkalari yangi (loyiha) ko'ndalang kesimi yuqorisi bo'yicha eni, m;

v_{ya} - kollektor uchastkalari yangi (loyiha) ko'ndalang kesimi pasti bo'yicha eni, m;

h_{ya} kollektor uchastkalari yangi (loyiha) chuqurligi, m;

h_e kollektorning tozalashgacha bo'lgan (eski) chuqurligi, m;

v_e kollektorning tozalashgacha (eski) ko'ndalang kesimi pasti bo'yicha eni, m;

V_{ya1} kollektorning tozalashgacha, chuqurlashtirishgacha bo'lgan (eski), ko'ndalang kesimi yuqorisi bo'yicha eni, m;

L_{kol} - tozalanadigan kollektorlar uchastka uzunligi

m - kollektor yonlari loyiha qiyalik koeffitsienti;

m^I - kollektor eski o'zani deformastiyalangan yonlari qiyalik koeffitsienti;

$h_{suвл}$ kollektor uchastkalaridagidagi suv chuqurligi, m;

h_m - kollektor suvi sathidan yuqoridagi va shu sath ta'sirida bo'lgan grunt qatlami qalinligi, gruntlar turlariga borliq ravishda olinadi, m.

Ishlar tarkibini belgilash

Bosqich loyihasida ishlar tarkibi o'tkazilayotgan tozalash-ta'mirlash turlariga va sxemalariga qarab quyida tartibda olinadi:

ochiq dren va kollektrlar tizimida:

- kollektor bermasini (bermalarini) ekskavator qazib o'tishi uchun buldozer yordamida

- eni 5 m gacha polosani tekislab tayyorlash

- kollektorni ekskavator yordamida cho'kindi loyqa va o'simlikli gruntдан tozalash

- kollektor o'zanini bir taraflama kengaytirish va chuqurlashtirish

- kollektor o'zani lokal deformastiyalangan uchastkalarda otkoslarni loyiha bo'yicha yotiq qilib to'firlash va tozalash

- ochiq dren va kollektordagi inshootlarni ta'mirlash;

- roshlarni buldozer yordamida yoyish va tekislash;

- ishlar sifatini nazorat qilish, ob'ektni topshirish ishlari.

Ishlar hajmlarini hisoblash

Tozalash-ta'mirlash ishlarining hajmi ikki marta hisoblanadi:

- loyihalash ishlari tugashi bilan loyihaga muvofiq;
- bajarilgan ish uchun ishchilarga ish haqi to'lash vaqtida;

Odatda, tozalash-ta'mirlash ishlarining hajmini hisoblashda gruntlarning tabiiy zichlikdagi hajmi nazarda tutiladi. Kollektor o'zanidan qazib olib roshga tashlanadigan grunt hajmini bilish uchun shu grunt qazib olinadigan joyning (cho'kindining) hajmi geodezik izlanishlar hisobotidagi kesimlar (bo'ylama, ko'ndalang) belgilari (otmetkalari) orqali hisoblab topiladi.

Eslatma. Kollektor o'zanidan, suv ostidan qazib olinadigan cho'kindi loyqa grunt o'simlik bilan o'smaganda I - guruxga mansub deb qaraladi

Ochiq dren va kollektorlar tizimida:

BMI loyihasi, tozalash-ta'mirlash ishlari hajmlari, kollektorning xarakterli ko'ndalang kesimlari va uzunligi o'lchamlari asosida quyidagicha hisoblab topiladi:

Kollektor o'zanini ekskavator yordamida cho'kindi-loyqa grundan tozalash ishlari solishtirma va umumiy hajmlari (1.1-chizma);

$$V_{\text{d}i\text{q}} = \sum_{i=1}^n V_{\text{d}i\text{q}i}, \text{ m}^3;$$

bu erda $i=1, 2 \dots n$ -kollektor uchastkalari tartib raqami; $V_{\text{toz } i}$ - kollektor i -nchi uchastkasini ekskavator bilan qazib olinadigan grunt hajmi, m^3 ;

$$V_{\text{m}o\text{z}i} = \omega_{oi} \cdot L_{\text{kol}i}, \text{ m}^3; \quad (2.4)$$

bu erda ω_{oi} - kollektor i -nchi uchastkasi o'zanini tozalashda (kengaytirishda, chuqurlashtirishda) qazib olinadigan grunt solishtirma hajmi;

Ishlarni kompleks mexanizastiyalash keyingi hisoblarida foydalanish va hisoblarni tekshirish maqsadida, kollektor uchastkalarining loyiha (yangi- ω_{yai}) va tozalashgacha (eski- ω_{ei}) ko'ndalang kesimlari yuzalari ayirmasi sifatida solishtirma hajmlar quyidagicha hisoblanadi:

$$\omega_{oi} = \omega_{\text{yai}} - \omega_{\text{ei}} \text{ m}^3/1\text{mu}; \omega_{\text{yi}} = \left\{ \frac{\hat{A}_{\text{yi}} + \hat{a}_{\text{yi}}}{2} h_{\text{yi}} \right\} 1 \text{ i} \text{ o}, \text{ m}^3/1\text{mu};$$

$$\omega_{\text{ei}} = \left\{ \frac{B_{\text{ei}} + \epsilon_{\text{ei}}}{2} h_{\text{ei}} \right\} 1 \text{ m} \text{ y}, \text{ m}^3/1\text{mu};$$

Yoki,

$$\omega_{oi} = \left\{ \frac{B_{\text{yai}} + \epsilon_{\text{yai}}}{2} h_{\text{yai}} - \frac{B_{\text{ei}} + \epsilon_{\text{ei}}}{2} h_{\text{ei}} \right\} 1 \text{ m} \text{ y}, \text{ m}^3/1\text{mu}; \quad (2.5)$$

Misol. Tozalashgacha va tozalagandan keyin kollektor uchastkasi ko'rsatgichlari

- yuqorisi bo'yicha loyiha (yangi) eni $V_{\text{yal}} = v_{\text{yal}} + 2mh_{\text{yal}} = 2,5 + 2 \cdot 1,5 \cdot 3,5 = 13$ m;
- pasti bo'yicha loyiha (yangi) eni $v_{\text{yal}} = 2,5$ m;

- loyiha (yangi) chuqurligi $h_{ya1} = 3,5$ m;
- tozalashgacha bo'lgan (eski) chuqurligi $h_{e1} = 2,5$ m;
- tozalashgacha (eski) yuqorisi bo'yicha eni $V_{e1} = 13$ m;
- tozalashgacha (eski) pasti bo'yicha eni $v_{e1} = 1,5$ m;
- uzunligi $L_{kol} = 1000$ m; shundan $L_{kol1}^{tr} = 500$ m qismi grundi transportga ortib ishlanadi.

- grunt turi –qumloq va $L_{kol1}^{o'sm} = 500$ m qismi grundi o'simlik bilan o'sgan;
- otkoslar loyiha qiyalik koeffitsienti $m = 1,5$;
- kollektor uchastkasidagi suv chuqurligi $h_{suv1} = 1,0$ m;
- ishlarni bajarish direktiv muddati $T_{ish} = 2,0$ oy.
- bo'lganda bir cho'michli ekskavator bilan bajariladigan cho'kindi loyqa grunddan tozalash ishlari hajmi topilsin.

Echish. (2.5) ifodadan kollektor o'zanidagi cho'kindi loyqa grunt solishtirma hajmi quyidagicha hisoblab topiladi.

$$\omega_o = \left(\frac{B_{\text{я}} + \epsilon_{\text{я}}}{2} h_{\text{я}} - \frac{B_{\text{э}} + \epsilon_{\text{э}}}{2} h_{\text{э}} \right) \cdot 1.My = \left(\frac{13 + 2,5}{2} \cdot 3,5 - \frac{13 + 5,5}{2} \cdot 2,5 \right) \cdot 1.My =$$

$$= 27,125 - 23,125 = 4,0 \quad m^3 / 1.My ;$$

yoki $\omega_o = \omega_{\text{я}} - \omega_{\text{э}} = 27,125 - 23,125 = 4,0 \quad m^3 / 1.My ;$

(2.4) ifodadan kollektorni, chuqurligi $h_{suv1} = 1,0$ m suv ostidan ekskavator bilan qazib tozalashdagi ishlar turlari bo'yicha va umumiy hajmlari quyidagicha hisoblab topiladi:

- o'simliksiz cho'kindi-loyqa grundi suv ostidan qazib tozalash ishlari hajmi:

$$V_{Toz} = \omega_{01} \cdot (L_{kol} - L_{kol}^{ycM} - L_{kol}^{mp}) = 4 \cdot (1000 - 500 - 250) = 1000 \quad m^3$$

- o'simlik bilan o'sgan grundi suv ostidan qazib tozalash ishlari hajmi:

$$V_{toz1}^{o'sm} = \omega_{01} \cdot L_{kol1}^{o'sm} = 4 \cdot 500 = 2000 m^3 ;$$

- suv ostidan qazib olinib transport vositasiga ortib ishlanadigan grunt hajmi:

$$V_{toz1}^{tr} = \omega_{01} \cdot L_{kol1}^{tr} = 4 \cdot 250 = 1000 m^3 ;$$

- umumiy hajm:

$$\sum V_{toz1} = \omega_{01} \cdot L_{kol1} = \sum V_{toz1} = V_{toz1} + V_{toz1}^{o'sm} + V_{toz1}^{tr} =$$

$$= 4 \cdot 1000 = 4000 \quad m^3 \qquad = 1000 + 1000 + 2000 = 4000 \quad m^3$$

Hisoblashlarni ixchamlashtirish maqsadida olingan natijalar 1.1-jadvaliga yozib qo'yiladi.

Gruntlar.....	h_{mi} -
-mayda, o'rta va yirik zarrali qumlar.....	0,3m
-qumoq va changsimon qumlar.....	0,5m
-qumloqlar, gillar va lyoss.....	1,0m

- kollektor o'zanini bir taraflama kengaytirishda qazib olinadigan, ekskavator kovshiga yopishadigan grunt solishtirma hajmi quyidagicha hisoblanadi.

$$\omega_{oi}^{\ddot{e}nuu} = (B_{\text{яи}} - B_{\text{эи}}) h_{\text{ми}} = (13 - 13) \cdot 0,5 = 0 \text{ м}^3/\text{1му} \quad (2.9)$$

kollektor bir taraflama kengaytirishda suv ostidan qazib olinadigan gruntlar solishtirma hajmlari umumiy miqdori quyidagicha hisoblanadi.

$$\sum \omega_{oi}^{\text{cy} \ddot{e} . o} = (\sum \omega_{oi} - \omega_{oi}^{\text{кyp}} - \omega_{oi}^{\ddot{e}nuu}) = (1 \text{ м}^3) \text{ , m}^3/\text{1му} \quad (2.10)$$

Suv ostidan qazib olinadigan gruntlar fizik-mexanik xususiyatlari har xil bo'lishi mumkinligi sababli ularning solishtirma hajmlarini quyidagi ko'rinishda ifodalab, hisoblash mumkin

$$\sum \omega_{oi}^{\text{cy} \ddot{e} . o} = (\omega_{oi}^{\text{лoй}} + \omega_{oi}^{\text{mam}}) \cdot 1 \text{ м}^3 \quad (2.11)$$

Suv ostidan qazib olinadigan gruntlar hajmlarini alohida hisoblashga ehtiyoj borligining sababi, mavjud qurilish va ta'mirlash ishlari tarmoq me'yorlarida bunday holatda ekskavatorlar (draglayn, teskari kovshli) ish unumdorligining pasayishi (vaqt me'yorlarining ortishi) nazarda tutilgan: mos ravishda

